

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT» KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“BH va A” kafedrasi mudiri

_____ dots. O.Xushmuradov

“ _____ ” _____ 2013 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani

_____ i.f.d. A.Xurramov

“ _____ ” _____ 2013 yil

“ Buxgalteriya xisobi va xisobotining xolatini tekshirish va uning natijalarini umumlashtirish tartiblari (Mikrokredit bank OATB Qashaqadaryo viloyati filiali misolida)mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Bajardi:

**“Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchi IV-kurs B-41 guruh
talabasi Shotto’rayeva Maftuna**

Ilmiy rahbar:

**“Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi assistenti A.Ravshanov**

**Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi
16-sonli 24 iyun 2013 yil**

Qarshi-2013 yil

R E J A

Kirish

I-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarida buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirishining zarurligi va vazifalari.

- 1.1. Iqtisodiyot subyektlarining buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va tekshirishning nazariy asoslari.
- 1.2. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tekshirish usullari.
- 1.3. Buxgalteriya hisobi va hisobotlari tekshiruvi natijalarini umumlashtirish tartiblari.

II-Bob. “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filialida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirish natijalarining tahlili.

- 2.1. Xujjatlashtirish va hisob ishlarining yuritilish holati tahlili.
- 2.2. Moliyaviy hisobot shakllarining auditorlik tekshiruvidan o'tkazilish holati va natijalarining umumlashtirilishi.

III-Bob. Iqtisodiyot subyektlari buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirishni takomillashtirish yo'llari.

- 3.1. Buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirishni takomillashtirishning asosiy yo'llari.
- 3.2. Tekshirish natijalarini umumlashtirishni takomillashtirish yo'llari.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston iqtisodiyotida erishilayotgan yutuqlar va barqaror rivojlanish jarayonlari tanlangan yo'limizning to'g'riligini asoslab bermoqda. Xususan, Muhtaram Prezidentimiz I.Karimovning Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2012- yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2013 – yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, “global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012- yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibliigi ta'minlandi”¹.

Mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini izchil amalga oshirish va inqirozga qarshi choralar dasturining ijrosini ta'minlashda iqtisodiyot subyektlari faoliyatida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini to'g'ri tashkil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi sodir bo'layotgan xo'jalik jaranlari hamda muomalalarini kuzatib va qayd etib qolmasdan, ishlab chiqarish rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, rejalashtirish, nazorat qilish va iqtisodiyotni boshqarish ishida asosiy vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, investitsiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytirishda ishonarli axborotlar tizimini shakllantirish va tashqi faydalanuvchilarga taqdim etishaloqida ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham hisobot va hisobot ishlarini to'g'ri tashkil qilish davr talabidir. Tahlillar ko'rsatadiki, aksariyat ekspertlar tomonidan 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozining yuzaga kelishidagi asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilganligi hamda moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi, soxta audit xulosalarining taqdim etilishi deb baholanadi. Shu nuqtai-nazardan ham Prezidentimiz I.Karimovning

“Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” asarida ta'kidlanganidek, “Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimda ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi”².

Shu sababli ham aynan respublikamizda inqirozga qarshi choralar dasturining ijrosini ta'minlash hisob ishlarining to'g'ri yuritilishiga hamda kunlik axborotlar tizimiga asoslangan hisobotlarning tuzilishiga bog'liq. Chunki, hisob va hisobot iqtisodiyot subyektlari faoliyatini doimiy kuzatib borish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

¹ Karimov I. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar yo'lini va modernizatsiya jarayonlarini qat'iyat bilan davom ettirish. SH. Ishonchgazetasi, 2013 yil 19 yanvar №8 (3201)

² Karimov I.A. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”. – T.: O'zbekiston, 2009, 4-b.

Iqtisodiyot subyektlari o'z faoliyatlari ustidan kundalik nazoratni xujjatlar va hisobot registrilariga asosan olib boradilar. Lekin uzoq vaqt (oy, chorak, yil) davomida xo'jalik faoliyatining yakunini bilish uchun bu ma'lumotlar yetarli emas. Ularni umumlashtirish va tizimga keltirish zarur. Bunga hisobot tuzish yo'li bilan erishiladi. Demak, hisobot iqtisodiyot subyektlarining o'tgan vaqt ichidagi ishlari natijalari va sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlari majmui bo'lib, undan faoliyatlarini tahlili qilish, nazorat qilish va boshqarish maqsadida foydalaniladi. Hisobot axborotlari sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar, ularni ishlab chiqarish xarajatlari, xo'jalik mablag'lari va ularni tashkil bo'lish manbalari, ishlarning moliyaviy natijalari, soliqqa tortish va dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai-nazardan ham buxgalteriya hisobi va hisobotlarining to'g'ri tashkil etilganligi va tuzilganligini doimiy tekshirib borish va natijalarini umumlashtirib borishni obyektiv zaruriyatga aylantiroqda. Chunki, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunida qayd etilganidek, "Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdi.

Buxgalteriya hisobining fazifalari:

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzishdan iboratdir"³.

Ushbu holatlar buxgalteriya hisobi va hisobotlarining to'g'riligini tekshirish va natijalarini umumlashtirishni taqozo etadi. Chunki, bugunda kunda korxonalarga investisiyalarni jalb etish va ularning to'lov qobiliyatini aniqlash, moliyaviy intizomga rioya etish darajasini tashxislash va moliyaviy holatini sog'lomlashtirish yo'nalishlarini belgilashda "Buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirish va uning natijalarini umumlashtirish" dolzarb masala hisoblanadi.

Shu nuqtai-nazardan ham bitiruv malakaviy ishi uchun "Buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirish va uning natijalarini umumlashtirish" mavzusi tanlab olindi.

Mavzuning o'rganilganligi: "Buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirish va uning natijalarini umumlashtirish" masalalarining ba'zi jihatlari bo'yicha respublikamizning bir qator olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar, xususan, T.Abdukarimov, R.Radjabov, A.Ergashev, M.Pardayev, A.Vahobov, O.Maxmudov, YO.Abdullayev, A.Ibrohimov, A.Usmonov, M.To'laxodjayeva, E.Ergashev, R.Do'stmurodov, N.Eshonqulovlarning ilmiy ishlarida, yaratgan darslik va o'quv qullanmalarida buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirish va uning natijalarini umumlashtirish masalalarining nazariy va uslubiy jihatlari bayon qilingan. Biroq tahlillar ko'rsatadiki, "Buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirish va uning natijalarini

³ O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 1996. 2-modda.

umumlashtirish” masalalarini mamlakatimizda modernizasiyalash va inqirozga qarshi choralar dasturining ijrosini ta’minlash jarayonlarini inobatga olgan holda, aynan “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filiali misolida o’rganilmagan. Ushbu holat ham mavzuning dolzarbligini yanada asoslaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi iqtisodiyotni modernizasiyalash jarayonlarida buxgalteriya hisobi va hisobotlarining holatini tekshirish va natijalarini umumlashtirish masalalarining nazariy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida iqtisodiyot subyektlarining buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirishning zarurligi va vazifalarini nazariy hamda uslubiy jihatdan asoslash;
- iqtisodiyot subyektlari buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirish va uning natijalarini umumlashtirish tartiblarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;
- “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filialida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirish va natijalarining umumlashtirishning hozirgi holatini tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlashtirish;
- bankda xujjatlashtirish va hisob ishlarining yuritilish holatini tahlil qilish;
- iqtisodiyot subyektlarining buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirishni takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Битирув малакавий ишининг амалий аhamиуати: Мазкур битирув малакавий ишида қилинган таклиф ва тавсиуаларнинг “Микрокредитбанк” OATB Qashqadaryo viloyat filiali tomonidan amaliyotga tadbiq etish uchun inobatga olinganligi ishning amaliy natijasini asoslaydi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

- Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida iqtisodiyot subyektlarining buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirishning zarurligi va vazifalarini nazariy hamda uslubiy jihatdan asoslanganligi;
- Iqtisodiyot subyektlari buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshiruv natijalarini umumlashtirish tartiblarini ilmiy jihatdan tadqiq etilganligi;
- “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filialida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirish va natijalarining umumlashtirishning hozirgi holatini tahlil qilinganligi va mavjud muammolarning aniqlashtirilganligi;
- Bankda xujjatlashtirish va hisob ishlarining yuritilish holatini tahlil qilinganligi;
- Iqtisodiyot subyektlarining buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirishni takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va tuzilish tahlili. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 125 betdan iborat. Mazkur bitiruv malakaviy ishida 8 ta jadval, 3 ta rasm o‘z ifodasini topgan.

I-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarida buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirishning zarurligi va vazifalari

1.1. Iqtisodiyot subyektlarining buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va tekshirishning nazariy asoslari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohatlar natijasi, ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvol tahlili qilinganda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali beri nihoyasiga yetmaganligini kuzatish mumkin. Chunki, tahlillar ko'rsatadiki, dunyo xo'jaligi iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlariga erishish yo'lida hozircha biron-bir jiddiy siljish ko'zga tashlanayotgani yo'q. Biroq mamlakatimizda erishilayotgan natijalar ijobiy. Xususan, Muhtaram Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi. Inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolinadi va 7 foizdan oshmadi. 2012 – yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shularga qarmasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profisit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi"⁴. Bundan ijobiy natijalarga erishishda iqtisodiyot subektlari faoliyatida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini to'g'ri tashkil etilishi va ularning holatini tekshirishga bevosita bog'liq. Chunki, nazariy manbalarda ta'kidlanganidek, buxgalteriya hisobi bu – kundalik va umumiy ma'lumotlar olish maqsadida ayrim korxona, aksiyadorlik jamiyati, muassasa, tashkilot va boshqalarning xujalik faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan buxgalteriya hisobi korxonalarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonidan iboratdir.

Buxgalteriya xo'jalik jarayonlarini pul ifodasida yoppasiga, uzluksiz, o'zaro bog'langan, xujjat bilan asoslangan holda aks ettirishni ta'minlaydi. Hisobning bu turi operativ hisobdan farq qilib, ayrim xo'jalik operatsiyalari yoki jarayonlarini emas, balki korxona xo'jalik faoliyatining hamma tomonini qamrab olgani uchun statistik hisob kabi mustaqil iqtisodiy fan hisoblanadi.

Respublikamizda buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisobot tuzish bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa meyoriy xujjatlar bilan tartibga solinadi. Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq

⁴ Karimov I. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar yo'lini va modernizatsiya jarayonlarini kat'iyat bilan davom ettirish. Ishonch gazetasi, 2013 yil 19 yanvar №8 (3201).

moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdir. Ma'lumki, jahon amaliyotiga mos keladigan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunimizsiz milliy hisob tizimini yetarli darajada qayta qurish mumkin emas. 1996 yil 30avgustda qabul qilingan ushbu Qonun, eng avvalo, buxgalteriya hisobini tashkil etish, buxgalteriya xujjatlari va registrlari, aktivlar va majburiyatlarni inventarizasiya qilish va baholashning asosiy tamoyillari va qoidalari, o'z va qarzga olingan kapital hisobi, moliyaviy hisobotlar oldiga ko'yilgan asosiy vazifalar, maqsad va talablarni belgilab beradi. Bundan tashqari, mazkur Qonun buxgalteriya hisobini yuritishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqi, burcha va ma'suliyatlarini shuningdek, moliyaviy hisobotlarni topshirish va chop etish bo'yicha qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi bo'yicha umumiy raxbarlik qilish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buxgalteriya hisobi va auditi uslubiyati boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan. Bu boshqarma dastlabki hisob masalalari bo'yicha yo'riqnoma, uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqadi.

Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilib bo'yicha metodologik raxbarlik ham Moliya Vazirligining buxgalteriya hisobi va auditi uslubiyati boshqarmasi tomonidan olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Makroiqtisodiyot va statistika Vazirligi bilan kelishilgan holda buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasini, buxgalteriya hisobi va hisobotining tipik shakllarini, ulardan foydalanishga oid yo'riqnomalarni tasdiqlaydi, buxgalteriya hisobini yaxshilash vak takomillashtirishga doir takliflarni joriy qiladi.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishga qo'yilgan eng asosiy talab bu – uning kam xarajatli va sodda bo'lishligidir. Korxona ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi sohasida yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Buning uchun esa eng avvalo, har bir korxonaning o'ziga xos tarmoq xususiyatlarini va boshqa jihatlarini chuqur o'rganish lozim.

Shu nuqtai-nazardan ham respublikamizdagi bir qator iqtisodchi olimlar "Buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning holatini tekshirish" masalalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar va nazariy manbalarni yaratganlar. Xususan, professor R.Radjabov tomonidan 1996 yilda nashr ettirilgan "Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi" darsligida tarmoqda buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisobotlarni tuzish tartiblari yaratilgan. Biroq ushbu nazariy manba 21-BHMS qabul qilinishidan oldin yaratilganligi sababli unda ifodalangan schyotlar rejasini yangi schyotlar rejasiga mos kelmas edi. Shuningdek, M.Umarov tomonidan yaratilgan "Buxgalteriya hisobi" darsligi aynan sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda hisob ishlarini ikki yo'nalishda, ya'ni "Boshqaruv hisobi" va "Moliyaviy hisob" yo'nalishlarida tashkil etish masalalari bayon qilinmagan. Ushbu holat A.A.Karimov tomonidan 2004 yilda nashr etilgan "Buxgalteriya hisobi" hamda A.S.Sotivoldiyev tomonidan 2005 yilda yaratilgan "Zamonaviy buxgalteriya hisobi" darsliklarida ham kuzatiladi. Ammo ushbu muammolar yechimi 2005 yilda professor O.Bobojonov tomonidan nashr ettirilgan "Moliyaviy hisob" professor

B.A.Xasanov va A.A.Xoshimovlar tomonidan shu yilda nashr ettirilgan “Boshqaruv hisobi”, N.Jo‘rayev, R.Xolbekov, F.Abduvaxidov, I.Ilxomovlar muallifligida 2007 yilda yaratilgan “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” shuningdek, N.Jo‘rayev, O.Bobojonov, F.Abduvaxidov, D.Sotvoldiyevalar hammualifligida 2007 yilda nashr ettirilgan “Moliyaviy va boshqaruv hisobi” darsliklarida batafsil va to‘liq ta‘minlagan.

Birok tahlillarimiz ko‘rsatadiki, ushbu nazariy manbalarda milliy hisobchilik tizimimizda amalga oshirilayotgan so‘nggi yillardagi yangiliklar va johon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida hisob tizimi oldiga qo‘yilgan talablar va ularni takomillashtirish masalalari o‘rganilmagan. Demak, tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi – bu kundalik kuzatishlar va nazoratning o‘ziga xos jihatlarini o‘zida namoyon qilganligi sababli ham doimiy yangilanib turishi kerak. Bugungi kunda ushbu masalalar yechimini ta‘minlash maqsadida ruspublikamizda chop ettirilayotgan “Buxgalteriya hisobi va soliq solish” jurnali hamda “Soliq to‘lovchi va bojxona xabarlar” va “Norma maslahatchi” gazetalar buxgalterlarga amaliy va uslubiy maslahatchi vazifasini bajarib kelmoqda.

Shuningdek, buxgalteriya hisobotlarini tekshirishning zarurligi va nazariy asoslari professor A.Voxobov, A.Ibroximov, N.Eshonqulov xammualifligida 2005 yilda nashr ettirilgan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”, hamda R.Do‘stmurodovning “Audit asoslari” darsliklarida bayon qilingan. Ma‘lumki, korxonalarni to‘g‘ri va oqilona boshqarish uchun turli-tuman ma‘lumotlar tizimidan foydalanish zarurki, ular orqali to‘g‘ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi mumkin. Ma‘lumotlar deyilganda – iqtisodiy hodisalar, voqealar va xo‘jalik jarayonlarini tegishli manbalar orqali aks ettirish, ularni qayta hisoblash va o‘rganish, hamda qiziquvchi tashkilotlarga uzatish tushuniladi.

Tekshirish uchun kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- iqtisodiy – hisobot ma‘lumotlari;
- huquqiy – meyoriy ma‘lumotlar;
- tashkiliy – texnikaviy ma‘lumotlar;
- tabiiy – ekologik ma‘lumotlar;
- boshqa ma‘lumotlar.

Iqtisodiy – hisobot ma‘lumotlarini biznes reja, turli xil axborot manbalar, texnologik ma‘lumotlar, operativ texnik, meyoriy, hisob va hisobot xujjatlari tashkil etadi. Bu manbalardan tekshirishda eng ko‘p foydalaniladi.

Huquqiy meyoriy ma‘lumotlarga ega respublikamizda amal qilinayotgan barcha qonunlar, meyoriy xujjatlar va normativ aktlarda rasmiylashtirilgan axborotlardan foydalanish tushuniladi.

Ilmiy – texnikaviy ma‘lumotlar, eng yangi taraqqiyot, jahondagi o‘zgarishlar, fan va texnika yutuqlarini o‘zida mujassam etgan axborotlardir. Bu axborotlar tekshirish va tahlil uchun muxim ahamiyat kasb etadi

Tabiiy – ekologik ma‘lumotlar, tabiat, yer, iqlim va boshqa ekologik omillarni mujassamlashtirgan axborotlarni iqtisodiy taxlilda muhim manba sifatida o‘rganiladi.

Boshqa manbalarga esa, iqtisodiy, xuquqiy, ilmiy – texnikaviy, tabiiy – ekologik manbalarda aks etmagan ma'lumotlar tushunilib, bunga ommaviy axborot vositalari, ro'znomalardagi, radio va televideniyaedagi keltirilgan axborotlardan foydalanish, tekshirish va tahlil uchun muhimdir.

Ko'plab hisobotlarni tekshirish va tahlil jarayonlariga qo'llanilishi ularning mazmunini boyitishga, boshqaruv qarorlarining xolisona bo'lishiga va korxonalarni bozor iqtisodiyotining faol ishtirokchisiga aylanishiga imkon yaratadi.

Iqtisodiy manbalar boshqa axborotlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi⁵ :

- Xujjatlashganligi – barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo'lishi bilan tegishli boshlang'ich xujjatlarda qayd etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashadi.
- Turli-tumanligi – hodisa va voqealar ko'pgina manbalarda qayd etilib, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir-biridan farqlanadi.
- Ommaviyligi va hajmining kengligi – ko'pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo'lganligi, hisobot shakllarining yuqori organlar tomonidan tasdiqlanganligi, ularni tushunishni, bilishni osonlashtiradi.
- Ma'lum davrlarda takrorlanib turishligi – tasdiqlangan meyoriy xujjatlar muntazam to'lg'azilib , tegishli tashkilotlarga topshirilish ko'zda tutiladi, hisobot davrlari – choraklar, yarim hamda yillik muddatlarga bo'linib axborotlar tuziladi.
- Qonunlashganligi va chegaralanganligi – barcha iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, Moliya vazirligi, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi va Soliq qumitasi tomonidan tasdiqlangan shakllarga asoslanib tuziladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar uchun muhim sanalgan ayrim ma'lumotlar boshqalar uchun maxfiy bo'lib, ularni tekshirish natijalari faqat egasining ruxsati bilan e'lon qilinishi mumkin.
- Qup qirraligi va sermazmunligi – iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o'lchamlarida ko'rsatiladi, boshlang'ich xujjatlarda korxona nomi, imzo chekuvchilarning sharifi, ismi, davri va mahulolarning turlari ko'rsatilgan holda rasmiylashadi. Iqtisodiy ma'lumotlarning aksariyat qismi hisob axborotlari tashkil etib, buxgalteriya statistika va tezkor hisoblar majmuidan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, iqtisodiy tahlil axborotlari tarkibida 70 foizdan ortiq salmoqni egallaydi.

Tekshirish va tahlil uchun kerakli manbalarda quyidagi talablar bajarilgan bo'lishi lozim:

1. Haqqoniylik va holislik tamoyiliga amal qilinish shart.
2. Manbalar tahlil qilinishi uchun keng imkoniyatli bo'lmog'i lozim, ya'ni reja, hisob va statistik ma'lumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq yoritishi, talab qilingan vazifalarni bajarishi kerak.

⁵ Voxobov A. va boshqalar. Moлиявий va boshqaruv taхлили. Дарслик – Т.: Шарқ 2005.

3. Iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbalar aniq o'lchamda aks ettirilishi lozim.
4. Barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog'lmqligi saqlaniladi hamda ulardagi axborotlar bir-birin to'ldirib turilishin taqozo etadi.
5. Manbalarga kiritilgan ko'rsatkichlarni aniqlanish tamoyillari va aks ettiriladigan davrlar mosligi zarurdir va hokazolar.

Yuqoridagi talablar javob beruvchi barcha axborotlar tekshirish va tahlilning aniq bajarilishi, sermazmun bo'lishiga imkon yaratadi.

1.2. Buxgaleriya hisobi va hisobotini tekshirish usullari

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ijobiy ko'rsatkichlar bilan bir qatordagi mavjud muammolar va salbiy holatlarni nafaqat qayd etish, balki iqtisodiyotimizning rivojini belgilab beradigan sabab va omillarni chuqur va holisona tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali-beri nihoyasiga yetgani yo'q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Dunyodagi taraqqiy topgan 20 ta davlat ishtirokida tashkil etilgan, "Katta yigirmalik" deb nom olgan gurux doirasida qabul qilinayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, jahon iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlariga erishish yo'lida hozircha biron-bir jiddiy siljish ko'zga tashlanayotgani yo'q"⁶

Shunday ekan, aynan inqiroz sharoitida har bir mamlakatning inqirozdan betalofat chiqishini ta'minlashda barcha iqtisodiyot subyektlarining buxgaleriya hisobi va hisobotlarini doimiy monitoring qilib borish, tekshirib turish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Shu sababdan ham bugungi kunda mamlakatimizda moliyaviy intizomga qat'iy rioya etilishi, unda hisob-kitob tizimida noqonuniy jihatlariga yo'l qo'yimaslik vazifalari ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur tekshirish usullarini nazariy va uslubiy jihatdan tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, buxgaleriya hisobi va hisobotlarida ifodalangan iqtisodiy ko'rsatkichlarning ishonchliligini, aniqligini va to'g'riligini tekshirish iqtisodiy tahlilning samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Kerakli manbalarning turli-tumanligi, sermazmunligi va ko'pligi ularning sifatli shakllanishiga e'tiborni qaratishni taqozo etadi. Barcha yig'ma ma'lumotlarning har tomonlama to'g'riligini tekshirish usullari quyidagi ikki guruxga bo'linadi:

- Texnik (yuzaki) tekshirish usuli;
- Mantiqiy yoki mazmunan tekshirish usullari.

Texnik tekshirish, buxgaleriya hisobi va hisobotlaridagi axborot manbalarini arifmetik jihatidan to'g'riligi, xujjatlashtirish va rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligini e'tiborga olgan holda o'ragnish jarayonini tushuniladi. Mazmun jihatidan tekshirish usulida esa, ma'lumotlarning haqqoniy ekanligi, unda aks ettirilgan raqamlarning haqiqatda borligini aniqlash tushuniladi. Bunday tekshirish o'z ichiga buxgaleriya hisobining boshlang'ich xujjatlarida keltirilgan raqamlarni haqiqiy ko'rsatkichlar bilan mosligini inventarizasiya o'tkazish orqali taqqoslash, sanab ko'rish va o'lchash yo'li bilan aniqlashni, ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilish jarayonini o'z ichiga oladi.

Ayniqsa, nafaqat ichki, balki tashqi foydalanuvchilarga ham taqdim etiladigan yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlarini mazmunan tekshirish tahlil ishlarini samarali o'tishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu

⁶ Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш ва халқимиз фаровонлигини оширишга ҳаракат қилади // Маърифат. 2011 йил 23 январ.

jarayonda ma'lumotlarni taxlil qilishdan oldin ularning to'g'riligi tekshirib olinadi. Ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun esa ayrim ko'rsatkichlarni ma'lum bir hisobotlar bilan taqqoslab, ularning bir-biriga mosligi o'rganiladi. Agar bir hil ko'rsatkichlar turli manbalarda bir xil tartibda aks ettirilgan bo'lsa, u holda ushbu ma'lumotlar to'g'ri deb tan olinishi mumkin bo'ladi. Moliyaviy hisobotning turli shakllaridagi turli ma'lumotlarni bir-biriga mosligini o'rganishda quyidagi analitik jadval va unda keltirilishi mumkin bo'lgan ketma-ketlikdan foydalanish mumkin (1.2.1-jadval).

Shunday tartibda debitorlik va kreditorlik qarzlarini, pul mablag'lar harakatini va boshqa ma'lumotlarni ham mazmunan, miqdoran to'g'riligini tekshirish mumkin.


Buxgaleriya hisobi va hisobotlarining to'g'riligini va ishonchliligini aniqlashda foydalaniladigan iqtisodiy tahlilni shartli ravishda iqqi guruxga ajratish mumkin (1.2.2.-rasm)

Bunday ikki guruxga ajratish bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy tahlilni moliyaviy va boshqaruv tahlili yo'nalishlarida tashkil etishni taqozo etadi. Chunki, boshqaruv tahlili – bu ichki tahlil bo'lib, tahlil natijalari faqat ichki foydalanuvchilarga oshkor etiladi, tashqi foydalanuvchilarga esa oshkor etilmaydi va subyektning tijorat siri hisoblanadi.

Moliyaviy taxlil nafaqat ichki balki tashqi tahlil ham bo'lib, tekshirish natijalari ham ichki ham tashqi foydalanuvchilarga oshkor etiladi.

Biroq taxlillarimiz ko'rsatadiki, ikkala holatda ham taxliliy tekshirishning maqsadi iqtisodiyot subyektlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni o'lchash, ularga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy aniqlash va foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarini axtarib topish hamda ularni amaliyotga tadbirig'i bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Иқтисодиёт субъектларининг бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларини
иқтисодий таҳлил қилишни ташкил этиш йўналишлари**



1.2.2-расм. Иқтисодиёт субъектларининг бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларини иқтисодий таҳлил қилишни ташкил этиш йўналишлари

1.3. Buxgalteriya hisobi va hisobotlari tekshiruv natijalarini tekshiruv natijalarini umumlashtirish tartiblari

Odatda tahlil ma'lumotlari va ularning natijalari uni kim va nima maqsadda o'tkazilganligiga qarab, turli shaklda umumlashtirilishi mumkin. Korxona va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati taxlilning natijalari analitik mavzular yoki xo'jalikning yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayonnoma ko'rinishida ifoda etiladi. Moliyaviy hisobotlarning auditorlik tekshiruv auditorlik hisoboti asosida audit xulosasi bilan umumlashtirish.

Shu sababdan ham taxlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi taxlil yoki auditni o'tkazganligimizga qarab bajariladi.

Masalan, korxonalarining yillik hisoboti asosida o'tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar yozish va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xatlari tuzish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi boshqa tahlillarning natijalari esamutaxassislarning ma'ruzasi, korxona raxbarining buyrug'i, jamoaning majlis bayoni, taftish komissiyasining dalolatnomalari orqali umumlashtirishi mumkin.

Taxlil natijalarini umumlashtirganda albatta erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamda va dalillar bilan ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya'ni takliflar ham ko'rsatiladi.

Xo'jalik faoliyati taxlili natijalarini rasmiylashtirish va umumiylashtirishda korxonalarining asosiy meyoriy-xuquqiy xujjatlarining bayoni, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili turli xil diagramma, jadval va grafiklar asosida ifodalandi. Mazkur analitik yozuvlar korxona va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha yillik yoki choraklik hisobotiga tushuntirish xatlari, xulosalar yozish orqali yoritiladi.

Xususan, tushuntirish xati rejaning bajarilishi haqidagi umumiy tavsif va ko'rsatkichlarni avvalgi darslarga nisbatan o'zgarishi haqidagi ma'lumotlaridan boshlanadi. So'ngra natijaning rejadani tafovuti sabablari, ayrim omillarning o'zaro bog'lanishi va ularning xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlariga ta'siri ifodalanadi.

Analitik hisob-kitoblar, analitik jadvallar ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Ularning har biriga xulosalar va ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini yechib beruvchi matnli ilovalar beriladi. Yozma matn uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda analitik jadvaldagi raqamlar o'qilib, ularning taqqoslama tahlili yozilsa, ikkinchi qismda iqtisodiy ko'rsatkichlar yoxud raqamlar bo'yicha xulosalar, uchinchi qismda mavjud holat bo'yicha bildirilgan taklif va tavsiyalarning bayoni keltiriladi. Yozma matn tushunarli, ilmiy asoslangan, ixcham, analitik-jadvallar bilan bog'langan bo'lishi talab etiladi.

Moliyaviy hisobotlarning auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha tuziladigan auditorlik xulosasi hisobotdan foydalanuvchilar uchun hisobotning ishonchli, to'g'ri va qonuniy ekanligini asoslaydi.

Mazkur xulosayozma shaklda ifodalanib uch: kirish, ta'kidlovchi, yakunlovchi qismlarga bo'linadi.

Kirish qismi: auditorlik tashkilotining yuridik manzili, lisenziyasining tartib raqami, lisenziya bergan tashkilotning nomi va lisenziyaning berilgan vaqti, amal

qilish muddatlari, auditorlik tashkilotining davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi guvohnomaning raqami, auditorlik tashkilotining hisob-kitob schyoti, tekshiruvda ishtirok etgan barcha auditorlik tashkiloti raxbarining familiyasi, ismi, sharifi, auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun asoslar va xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy tavsifi, tekshirishdan o'tkazilgan moliyaviy hisobot shakllarining ro'yxati bayon qilinadi.

Ta'kidlovchi qism: auditorlik xulosasi AFMSga muvofiq o'tkazilganligi ta'kidlanishi zarur. Ta'kidlovchi qism moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va qonunchilikka hamda xo'jalik yurituvchi subyekt moliya – xo'jalik faoliyatining haqiqiy ahvoliga muvofiqligini baholashning yozma bayoni ifodalanadi.

Auditorlik xulosasining yakunlovchi qismida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotining ishonchliligi va qonunchilikka muvofiqligini tasdiqlash to'g'risida yozuv yoziladi.

II-Bob. “Mikrokreditbank” OATB Qashqalaryo viloyat filialida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirish natijalarining tahlili

2.1. Xujjatlashtirish va hisob ishlarining yuritilish holati tahlili

Mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy ustunliklaridan biri bu bank tizimi hisoblanadi. Tahlillar ko‘rsatadiki, mamlakatimiz moliya – bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. Xususan, Muhtaram Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganlaridek, 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so‘nggi 3 yilda esa ikki barobar ko‘paydi. Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012-yil yakunlari bo‘yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esatalab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir”⁷. 2010 yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo‘lgan bo‘lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga yetdi. Banklar faoliyatida, o‘tgan yillardagi kabi, investisiya faoliyatiga katta e’tibor qaratildi.

Ushbu banklar tarkibida “Mikrokreditbank” OATB hamda uning filiallarining faoliyati ham ijobiy baholanmoqda. Xususan, “Mikrokreditbank” OATB Qashqalaryo viloyat filiali viloyatdagi kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo‘li bilan yangi ish o‘rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarida aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan baxramand bo‘lishini ta’minlash uchun moliyaviy mablag‘lar berish bilan shug‘ullanib kelmoqda.

Mazkur bank O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoning 2006 yil 05 maydagi №PF – 3750 Farmoni bilan sobiq “Tadbirkor bank” bazasida tashkil etilgan.

“Mikrokreditbank” OATB ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kichik biznes, xusussiy tadbirkorlik subyektlariga, fermer va dehqon xo‘jaliklariga o‘zlarining ishlab chiqarish faoliyatini mustahkamlash va kengaytirishlari uchun mikrokreditlar berish, keng ko‘lamdagi bank hamda konsalting xizmatlari ko‘rsatish;
- Mikrokreditlar berish hamda mikrolizing yo‘li bilan mikrofirmalar, oilaviy biznes va kasanachilik rivojlanishini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash g‘isobiga tadbirkorlik sohasi kengayishiga ko‘maklashish;
- Qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan biznes rejani, uning moliyaviy holatini, kreditni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarni ta’minlash manbalarini sinchiklab tahlil etish asosida mikrokreditlarning qaytarilishini ta’minlash;
- Mikrokredit berish va mikrolizing bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirish uchun xalqaro moliya institutlari hamda yetakchi xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari, investisiya va grandlarini jalb etish;

⁷ Karimov I. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohatlar yo‘lini va modernizatsiya jarayonlarini kat’iyat bilan davom ettirish. Ishonch gazetasi 2013 yil.

- Ayniqsa, qishloq joylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlaydigan filiallar va mini-banklar tizimi orqali moliyaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish.

Mazkur bank tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun imtiyozli mikrokreditlarni yiliga 5 foizdan yuqori bo'lmagan foiz stavkasida, eng kam ish haqining 200 karragacha miqdorida 18 oygacha bo'lgan muddatga;

- kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larini to'ldirishga mikrokreditlarni Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan stavka bo'yicha eng kam ish haqining 500 karragacha miqdorida 24 oygacha bo'lgan muddatga beradi;
- kichik biznes subyektlari uchun Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan yuqori bo'lmagan stavka bo'yicha, eng kam ish haqining 2000 karragacha miqdorida 3 yilgacha bo'lgan muddatga imtiyozli mikrolizing bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ilgari olgan mikrokreditni o'z vaqtida va to'liq qaytargan hamda u bo'yicha qo'shilgan foizlarni to'lagan tadbirkorlik subyektlari biznesni rivojlantirishga keyingi mikrokreditlarni olish hamda "Mikrokreditbank" xizmatlaridan foydalanish uchun ustunlik huquqiga ega bo'ladilar.

Bank o'z faoliyatini maqsadli va samarali tashkil etishda buxgalteriya hisobidan foydalanadi.

Buxgalteriya hisobini yuritishda xujjatlar juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki har bir sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyasi xujjatlashtirilganligi natijasidagina uning to'xtovsiz hisobga olinishi ta'minlanadi va ishonchnomaga ega bo'linadi. Shu bilan birga buxgalteriya hisobining schyotlarida, registrlarida va hisobot ish qog'ozlarida aks ettirilgan hamma yozuvlar tegishli boshlang'ich xujjatlar bilan asoslangan bo'lishi zarur. Shuning uchun ham xujjatlashtirish buxgalteriya hisobi usulining muhim jihatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

"Ko'pchilik iqtisodiy adabiyotlarda xujjat bilan hujjatlashtirish o'rtasida ma'lum aniq chegara bo'lmagan. Buxgalteriya hisobida xujjat deb huquqiy asosga ega bo'lgan ma'lum rekvizitli ish qog'oziga aytiladi. Buxgalteriya hisobida xujjatlashtirish deb esa xo'jalik operatsiyalarini xujjat yordamida rasmiylashtirish usuliga aytiladi"⁸.

Tahlillar ko'rsatadiki, xo'jalik muomalalarini xujjatlashtirish tezkor boshqarishga samarali ta'sir ko'rsatib, boshqaruv xodimlarining o'z vazifalarini suistemol qilmasdan, vijdonan bajarilishini ta'minlamoqda.

Bankda xujjatlarni rasmiylashtirish tartibi shunday yo'lga qo'yilganki, uni soxtalashtirish, o'z vaqtida buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish imkoni ta'minlangan.

⁸ Хушмуродов О.Н. Бухгалтерия ҳисоби назарияси фанидан ўқув – ўқув – услубий мажмуа. Қарши. ҚМШИ 2010 йил.

Ushbu holat boshqaruvni axborot bilan ta'minlash, shuningdek, xujjat buxgalteriya hisobida amalga oshirilgan xo'jalik muomalasi to'g'risida yozma guvohlik berib, buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga yuridik kuch bag'ishlamoqda.

Bank buxgalteriyasida hamma xo'jalik muomalalarini xujjatlashtirish joriy buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarida ifodalangan.

Xujjatlashtirish yordamida xo'jalik mablag'lari harakatini o'z vaqtida to'g'ri hisobga olingan, shuningdek, bir moddiy javobgar shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda moddiy boyliklarning butligi ta'minlangan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi darajasida biz bank misolida boshlang'ich xujjatlarni rasmiylashtirish va ularni aylanish tartiblariga tegishli tushunchalarning tavsifini keltiramiz. Bank buxgalteriyasida boshlang'ich xujjatlarni tuzish, qabul qilish, saqlash va buxgalteriya hisobida qayd qilish tartiblari O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni hamda "Buxgalteriya hisobida xujjatlar va xujjatlar aylanuvi to'g'risida"gi nizomga asosan o'rnatilgan.

Tahlillar ko'rsatadiki, boshlang'ich xujjatlar xo'jalik operatsiyasi sodir bo'lgan paytda tuzilgan va ularda aniq (ishonchli) ma'lumotlar qayd qilingan bo'lib, hisob registrlaridagi yozuvlar buxgalteriya xujjatlari asosida qayd etilgan:

- o'z vaqtida tuzish, to'liq va ishonchli bo'lish;
- xo'jalik faoliyati ustidan dastlabki va joriy nazoratni olib borish.

Bankda buxgalteriya hisobi 2 yo'nalishda olib boriladi. Ulardan biri analitik, ikkinchisi sintetik hisobdir. Har ikkala yo'nalishdagi buxgalteriya hisobining yuritilishi va umuman banklarda buxgalteriya ishining tashkil etilishi kompyuter texnikasi qo'llaniladigan sharoitni hisobga olgan holda olib boriladi. Buxgalteriya hisobi jahon amaliyotida va hisob yuritishning xalqaro andozalarida sintetik hisob o'rniga Bosh kitob deb nomlanuvchi hisob xujjatlari qo'llaniladi. Shuningdek, analitik hisob o'rniga qo'shimcha kitob deb nomlanuvchi hisob xujjatlaridan foydalaniladi.

Biz nazarda tutgan kitob bir qator hisob-varaqlar guruxi bo'lib, Bosh kitob esa bu bank moliya hisobotlarida ko'rsatiladigan hisobvaraqlar guruxidir. Moliya hisobotlariga balans hisoboti, daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi hisobot va boshqalarni kiritish mumkin.

Bosh kitobda birinchi navbatda balans hisob-varaqlari bo'yicha jamlama ma'lumotlar qayd etiladi. Demak, hisobvaraqlar Bosh kitobda umumiy ma'lumotlarni qayd etadi, lekin, mufassal axborotlar bilan ta'minlamaydi. Mufassal axborot qo'shimcha kitob ma'lumotlari asosida olinishi mumkin, chunki birlamchi buxgalteriya operatsiyalari qo'shimcha kitobda aks ettiriladi. Undagi hisob-varaqlar guruxi har biri alohida operatsiya bo'yicha o'tkazilgan summalar haqida kerakli axborot beradi. Qo'shimcha kitob hisobraqamlariga nisbatan olganda bosh kitob hisobvaraqlari nazorat hisobvaraqlari vazifasini bajaradi. Qo'shimcha kitoblardagi yakuniy summalar har kun oxirida, shuningdek, oy oxirida yangi oyning birinchi kundagi holatiga ko'ra ularning bosh kitobdagi nazorat yakunlari balansi bilan bir xil chiqishi lozim. Bosh kitob nazorat hisobvaraqlarning ma'lumotlari qo'shimcha kitobdagi tegishli hisobvaraqlar

yakuniy summalari bilan taqqoslanadi. Agarda dastlabki yozuvlarda xatolarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, bosh kitob va qo'shimcha kitob summalari teng chiqadi.

Hozirgi kunda ko'pgina tijorat banklari mijozlarga so'mda yuritiladigan hisobvaraqlar bilan bir qatorda xorijiy valyutadagi operatsiyalar hisobini yuritish maqsadida xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarni ochishlari mumkin. Xorijiy valyutadagi operatsiyalar bo'yicha asosiy va qo'shimcha kitoblar har bir valyuta turi bo'yicha alohida yuritiladi.

Bosh kitob bo'yicha kodlash tizimi besh xonali bo'lishi lozim. Aktiv hisobvaraq kodlari toq, passiv hisobvaraqlarning kodlari esa juft bo'ladi. Bu tartib osonroq qabul qilish va eslab qolish uchun ko'zda tutilgan. Balans hisobvaraqlarida hisob takrorlanadigan yozuv usulida yuritiladi. Operatsiyalar, ular bo'yicha mablag'lar harakatlangan kundan qat'iy nazar bajarilgan kuni buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Birlamchi buxgalteriya operatsiyalarini o'zida aks ettirib, ular haqida mufassal axborot beruvchi hisobvaraqlar guruxi analitik hisob, ya'ni qo'shimcha kitob deb yuritiladi. Banklarda qo'shimcha kitoblar hisobga olinadigan har bir turdagi mablag'lar va boyliklar bo'yicha ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, kartochkalar, daftarlar va jurnallarda yuritiladi.

Bunda ularning maqsadi, shuningdek, hisobvaraqlar egalari ko'rsatiladi.

Banklarda eng ko'p ishlatiladigan qo'shimcha kitob materiallardan biri – bu shaxsiy hisobvaraqlardir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ochiladigan barcha hisobvaraqlar O'zbekiston Respublikasi Bank Depozitlari Milliy axborot bazasida qayd etiladi. Bunda har bir mijozga uning qaysi mulkchilik shakliga qarashliligi, faoliyat turi va boshqa belgilariga ko'ra xosraqam, ya'ni kod beriladi. Bu kod ushbu mijozga bankda qanday turdagi shaxsiy hisobvaraq ochilayotgan bo'lsa, ularning barchasini nomerlashda foydalaniladi. Lekin mijoz hisobvaraq ochish uchun avvalo o'z bankiga murojaat etadi. Mijoz uchun hisobvaraq ochilayotgan bo'lsa, ularning barchasini nomerlashda foydalaniladi. Lekin mijoz hisobvaraq ochish uchun avvalo o'z bankiga murojaat etadi. Mijoz uchun hisobvaraq ochilayotganda bank bosh hisobchisi mijoz taqdim etgan barcha materiallarni yuridik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilganini tekshirgandan so'ng, barcha kerakli ma'lumotlar asosida belgilangan shakl tuziladi. Bu ma'lumotlar fayli Bank depozitlari Milliy axborot bazasiga jo'natiladi.

Barcha hisobvaraq raqamlari 20 xonali sonlardan iborat bo'ladi. Mijozlarning shaxsiy hisobvaraqlari mijozlar tomonidan taqdim etilgan, ayrim hollarda bank hodimlari tomonidan rasmiylashtirilgan birlamchi xujjatlari asosida tuziladi. Shaxsiy hisobvaraqlar dasturiy yo'l bilan ikki nusxada tayyorlanadi. Shaxsiy hisobvaraqlarning birinchi nusxasi belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilgandan so'ng bankda qoldirib, kundalik xujjatlar yig'ma jildiga tikiladi. Ikkinchi nusxa shaxsiy hisobvaraqdan qo'chirma bo'lib xizmat qiladi va mijoxga beriladi.

SH9axsiy hisobvaraqlarga yozuvlar faqat belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-kitob va pul xujjatlari asosida kiritiladi. Shaxsiy hisobvaraqlarning sodd shakli quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

Hisobvaraqlar raqami

Cana	Korresponden- siyalashgan hisob varaqlar raqami	Xujjat raqami	Operatsiya mazmuni	Aylanmalar		Qoldiq
				Debet bo'yicha	Kredit bo'yicha	

Jadvaldan ko'rib turganingizdek, shaxsiy hisobvaraqlar o'z ichiga hisobvaraqlar raqami, sana, operatsiya o'tkazishda korrespondensiyada bo'lgan hisobvaraqlar raqami, operatsiyalar mazmuni, debet va kredit bo'yicha aylanmalar summasi va hisobvaraqlar bo'yicha qoldiqlar haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Lekin hozirgi kunda barcha banklarda operatsiyalar kompyuter dasturlari yordamida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Shu sababli shaxsiy hisobvaraqlarida avvalgidan ko'ra ko'proq ma'lumotlar ko'rsatilmoqda. SHaxsiy hisobvaraqlarda quyidagi rekvizitlar yozilgan bo'lishi zarur:

- ❖ shaxsiy hisobvaraqlar nomi;
- ❖ shaxsiy hisobvaraqlar raqami;
- ❖ shaxsiy hisobvaraqlar tuzgan bank kodi va nomi;
- ❖ mijozning nomi;
- ❖ shu mijozga xizmat ko'rsatuvchi ma'sul ijrochi raqami, uning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- ❖ shaxsiy hisobvaraqlardagi so'nggi harakat sanasi;
- ❖ shaxsiy hisobvaraqlarga ishlov berish sanasi;
- ❖ kun boshiga bo'lgan qoldiq;
- ❖ xujjat raqami;
- ❖ operatsiya turi;
- ❖ vakil bankning kodi;
- ❖ debet bo'yicha aylanmalar summasi va bu summalarining umumiy yakuni;
- ❖ kreditlar bo'yicha aylanmalar summasi va bu summalarining umumiy yakuni;
- ❖ kun oxiriga bo'lgan qoldiq.

SHaxsiy hisobvaraqlar rekvizitlaridan biri – operatsiya turidir. Operatsiyalar turini shaxsiy hisobvaraqlarda qayd etish shartli raqam belgilari qo'llaniladi. Quyidagi jadvalda shartli raqam belgilarini keltiramiz.

Xujjatlar buxgalteriya qaydidan o'tkazilayotganda shaxsiy hisobvaraqlarga qo'yiladigan operatsiyalar turining shartli raqam belgilari (shifrlari)

2.1.2 – jadval

Operatsiya- lar turi-ning raqam belgilari	SHartli raqam belgilari bilan almashtiriladigan yozuvlar mazmuni	
	Debet bo'yicha	Kredit bo'yicha
1	Sizning topshirig'ingizga muvofiq olindi	To'lov topshiriqnomasining ilova nusxasi
2	To'lov topshiriqnomasi puli to'landi	Nusxasi ilova qilingan hollarda to'langan to'lov
2	Akkreditiv bo'yicha kiritildi	Jo'natilgan tovar uchun kiritilgan
3	Sizning chekingiz summasi naqd pul bilan to'landi	Naqd pul kelib tushdi
3	Inkassasiya qilingan tushum bilan summadagi kamomad hisobdan chiqarildi (17397 – hisobvaraq bilan aloqadorlikda)	Inkassasiya qilingan tushum solingan xaltadan chiqqan ortiqcha mablag'lar kiritildi (23296- hisobvaraq bilan aloqadorlikda)

SHaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalar kompyuter yordamida tayyorlansa, ular mijozlarga berilayotganda imtiyozlar va bank shtamlari bilan tasdiqlanmaydi.

Hisobvaraqlar krediti bo'yicha o'tkazilgan summalar yuzasidan, shaxsiy hisobvaraqlaridan ko'chirmalarga yozuvlarni kiritishda asos bo'lgan dastlabki xujjatlar ilova qilinadi. Puli to'langan hisob – kitob xujjatlarning mijozlar hisobvaraqlaridan ko'chirmalarga ilova qilinadigan, ishlov berishning dastlabki bosqichlaridayoq bank shtampi yoki muxri bosilgan ikkinchi nusxalar, shuningdek kirim – kassa operatsiyalariga doir xujjatlar shtamp bilan tasdiqlanmaydi.

Hisobvaraqlardan ko'chirmalar mazkur hisobvaraq bo'yicha birinchi yoki ikkinchi imzo xuquqiga ega bo'lgan shaxslarga yoki ularning ishonchnoma taqdim etilgan vakillariga tilxat bilan beriladi. Bunday ishonchnomalar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. Hisobvaraq egasi unga ko'chirma berilgandan keyin, agar biror e'tiroz bo'lsa, ikki ish kuni mobaynida bankka hisobvaraq krediti va debeti bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan to'g'ri summalar haqida yozma ravishda xabar berishi shart. Agar shu ikki kun muddat ichida mijoz o'z e'tirozini bildirmasa, bajarilgan operatsiyalar hamda hisobvaraqdagi mablag' qoldig'i tasdiqlangan hisoblanadi. Mijoz o'z hisobvarag'i krediti bo'yicha noto'g'ri summa kelib tushgani haqida ham ikki ish kuni ichida bankka xabar berishi lozim. bank oradan ikki ish kuni o'tgandan keyin mijoz hisobvarag'i kreditida noto'g'ri yozuvlar borligini aniqlasa, mijoz har bir kechiktirilgan kun uchun hisobvaraq kreditiga yozilgan umumiy summaning bank xizmati ko'rsatilishi to'g'risidagi shartnomada ko'zda tutilgan foiz xajmida bankka jarima to'laydi. Bunday jarima begonalar mablag'idan o'z manfaatlari uchun faydalangani uchun o'ndirib olinadi.

Bank o'z mijozlarining barcha turdagi hisobvaraqlarining holati to'g'risida, ya'ni mablag'lari, ularning xarakati to'g'risida yozma ma'lumotlarni ikki holatda berishlari mumkin:

- a) hisobvaraq egalarining yuqori tashkilotlari tomonidan so'ralganda;
- b) davlat nazorat organlari jumladan, sud va soliq organlari tomonidan yozma ravizda talab qilib so'ralganda.

Boshqa hollarda mijozlar hisobvaraqlarining ahvoli haqida yozma ravishda ma'lumot berilishi ta'qiqlanadi. Bu haqda "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yichayo'riqnoma" ning II-qismi 54-moddasida alohida ko'rsatib o'tilgan.

Shunday holatlar ham bo'ladiki, mijozlar biror sabab bilan bankdan o'z hisobvaraqlarining ko'chirmalarini yo'qotib qo'yishlari mumkin.

Agar mijoz shaxsiy hisobvarag'dan ko'chirmani yo'qotib qo'ysa, mijozga qo'chirma dublikati berilishi mumkin. Buning uchun mijoz kuchirmani yo'qotish sabablarini ko'rsatgan holda ariza yozib bank raxbariga taqdim etishi lozim. Arizaga korxona raxbari va bosh hisobchi imzo qo'yishlari kerak.

Har bir ma'sul ijrochi o'zi xizmat ko'rsatayotgan mijozlarning hisobvaraqlaridan ko'chirmalarni, ularga tarqatib bo'lgandan keyin, o'zi qolgan shaxsiy hisobvaraqni ular nomalarining ortib borishi tartibida, ular ichiga esa sanalar bo'yicha saralaydi. Oy tugagandan keyin ular xuddi shu tartibda balans hisobvaraqlari bo'yicha dastlab broshura holiga keltiriladi va keyin oyning 20-kunidan kechikmay ro'yxat bo'yicha joriy arxivga qo'yiladi.

Qo'shimcha kitobning asosiy materiali – shaxsiy hisobvaraqlar bo'lgani uchun biz ular haqida batafsil to'xtalib o'tdik.

2.2. Moliyaviy hisobot shakllarining auditorlik tekshiruvdan o'tkazilish holati va natijalarining umumlashtirilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "2011-2015 yillarda respublika moliya – bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori halqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010 yil 26 noyabrdagi PK-1438-sonli Qarorida moliya tashkilotlarida xatarni baholash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishini oldini olish choralari ko'rish yoo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yangilanishini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri etib belgilangan edi. Ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlashda tijorat banklarining moliyaviy holati va natijalarini yaxshilash dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli tijorat banklari tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobot shakllarining to'g'riligi, ishonchliligi auditorlik tekshiruvdan o'tkazilish shart. Bosh kitob banklarda umumlashgan hisob haqida axborot berib, bank moliya hisobotlarida ko'rsatiladigan hisobvaraqlar guruxi bo'lib hisoblanadi. Bosh kitobga yanada to'liqroq ta'rif beradigan bo'lsak, bosh kitob bilans hisobvaraqlari bo'yicha qo'shimcha kitob, ya'ni tavsiliy hisobvaraqlari ma'lumotlari to'plamidir. Bosh kitob ham qo'shimcha kitob kabi bir qator materiallar asosida yuritiladi. Bosh kitob materiallari quyidagilar hisoblanadi:

- hisobvaraqlar qoldiqlarining kundalik balansi;
- balans hisobvaraqlari bo'yicha aslanmalar va qoldiqlar haqidagi jamlama ma'lumotlar;
- oylik, choraklik va yillik saldo aylanma qaydnomalari;
- kirim va chiqim bo'yicha kassa jurnallari.

Bulardan tashqari, bosh hisobchining xoxishiga ko'ra emissi – kassa operasialari, xorijiy operasialar, shuningdek, kutilmagan vaziyatlar hisobvaraqlari bo'yicha jamlama kartochkalari yuritilishi mumkin. Har bir bosh kitob materiallarini alohida ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, bankda balans har kuni tuziladi. Balansning har ikki aktiv hamda passiv qismlarining o'zaro tengligi bank ish kuni yakunlanganligini bildiradi. Bosh kitobning barcha materiallari qatori kundalik balans hozirgi kunda bankda dasturiy yo'l bilan kompyuter yordamida tayyorlanadi. Balans quyidagi shaklda tuziladi:

“Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filialida kunlik balansning tuzilish

2.2.1 – jadval.

Bank nomi	Filiallararo aylanma bo'yicha bank raqami		
Sana	Hisobvaraqlar raqami	Qoldiq	
	10101-19997	Aktiv	Passiv
		14,712,848,533,74	297,200,087,45
	20203-29896	0,00	14,004,092,195,42
	30315-30908	0,00	406,480,431,59
	42001-45994	0,00	2,332,839,500,72
	50106-56902	2,327,763,681,44	0,00
	90327-96397	45,969,694,702,59	45,969,694,702,59

Demak, bankning kundalik balansida sana, balans ichidagi hisobvaraqlar raqamlari, aktiv va passiv hisobvaraqlar qoldiqlari ko'rsatib, bank ish faoliyatini bir kunlik yakunini bildiradi.

Bosh kitob materiallaridan yana biri balans hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va qoldiqlarning jamlama ma'lumotidir. Bunday jamlama ma'lumotda, nafaqat balans hisobvaraqlari bo'yicha qoldiq, balki, hisobvaraqlar debeti va kreditidan o'tgan aylanmalar summaları ham aks ettiriladi. Shuning uchun, aniqroq ma'lumot olish uchun, hozirgi kunda ko'p banklar kundalik balans bilan birgalikda balans hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va qoldiqlari haqidagi jamlama ma'lumotlari tuzib boradilar.

2.2.2-jadval.

Aylanmalar va qoldiqlar qaydnomasi

Bank nomi	Filiallararo aylanma bo'yicha bank nomi			
Sana	Hisobvaraqlar raqami	Aylanmalar		Qoldiq
		Debet	Kredit	Aktiv
				Passiv

Balans hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va qoldiqlar haqidagi jamlama ma'lumotlarda, jadvaldan ko'rib turganingizdek, bank nomi uning filiallararo aylanmalar bo'yicha raqami, sana debet va kredit aylanmalari, aktiv va passiv hisobvaraqlarining qoldiqlari ko'rsatiladi. Bunday jamlama ma'lumotlar bilan birga bank xabarining hoxishiga ko'ra, har kuni, shu bilan birga aylanma va qoldiq summalarining o'sib borish tartibida bir oylik va choraklik, ya'ni hisobot davri uchun ma'lumotlar tayyorlanishi mumkin.

Oylik, choraklik va yillik saldo aylanma qaydnomalar ham Bosh kitob materiallari bo'lib hisoblanadi. Qaydnomalarning har biri ma'lumot bir hisobot davriga, ya'ni oy, chorak va yil bo'yicha tuziladi. Ularning har birida qaydnoma

tuzilgan sana, hisobvaraqlar raqamlari va ular bo'yicha qoldiqlar ko'rsatiladi. Qaydnomalarning har biri ma'lum bir hisobot davri uchun kelasi davr boshiga tuziladi.

Bank kassasi bilan bog'liq bo'lgan Bosh kitob ma'teriallari ikkita bo'lib, ular:

- kassaning kirim jurnali;
- kassaning chiqim jurnalidan iborat.

Har kuni bank kassasiga topshirilayotgan naqd pul summasi kassaning kirim jurnalida nazoratchi tomonidan qayd etilib boriladi. Unga sana, pul topshirayotgan korxona hisobvarag'i raqami, xujjat raqami, operatsiya mazmuni, summa mazmuni ko'rsatiladi.

Kassaning chiqim jurnali ham kundalik chiqim kassa operatsiyalari bajarilganda nazoratchi tomonidan rasmiylashtiriladi. Jurnalda sana, mijozning talab qilib olinadigan depozit bo'yicha hisobvaraqlar raqami, korrespondensiya hisobvarag'i raqami, operatsiyalar mazmuni, xujjat raqami, hisobot simvoli, chek summasi ko'rsatiladi. Shu bilan birgalikdan nazoratchi va kassirning imzosi uchun g'am alohida joy ajratilgan. Quyida chiqim kassa jurnalining shaklini keltiramiz. Biz aynan "Mikrokreditbank" OATB Qashqadaryo viloyat filialida ushbu buxgalteriya hisobi xujjatlari bilan tanishib chiqdik. Taxlillar ko'rsatadiki, bankda xujjatlashtirish jarayoni 3 ta nazorat shaklida tekshirib borilmoqda. Xususan, joriy nazoratda xujjatlashtirish jarayonining holati tekshirilsa, dastlabki nazoratda xujjatlashtirishdan oldin tekshiruv o'tkaziladi. Yakuniy nazoratda xujjatlarga asosan bank operatsiyasi bajarib bo'lingandan so'ng o'tkaziladigan tekshiruv amalga oshiriladi.

2.2.3-jadval.

Bank nomi chiqim kassa jurnali

Sana	Mijoz hisobvarag'ining raqami	Operatsiya mazmuni	Xujjat raqami	Hisobot simvoli	Summa	Nazoratchi imzosi	Kassir imzosi
01.12	xxxxxxxx	Ish haqi uchun naqd pul	№1204		3080000		

Kassa jurnallari dasturiy yo'l bilan alohida kassa kirimi va chiqimi bo'yicha ikki nusxada tuziladi. Balans hisobvarag'i va butun jurnal bo'yicha yakunlar chiqariladi. Yakunlar kassa ma'lumotlari bilan taqqoslangandan so'ng, birinchi nusxalar qo'shimcha daftar ma'lumotlarini Bosh daftar ma'lumotlari bilan taqqoslash, shuningdek, kirim va chiqim xujjatlarini taqqoslash uchun ishlatiladi. Operatsion kun tugagandan so'ng, ular yig'ma jildga (alohida papka) tikilib, har kuni xujjatlarni arxivga topshirishga tayyorlovchi xodimga taqdim etiladi.

Hisobvaraqlar rejasi 6 bo'limdan iborat bo'lib, ulardan 5 tasi balans ichidan hisobvaraqlarni o'z ichiga oladi, oxirgi 6 – bo'lim esa balansdan tashqari hisobvaraqlardan iborat. Yangi rejaning yana bir xarakterli xususiyatlari shundan

iboratki, bundagi balansdan tashqarida joylashgan hisobvaraqlar ham balans ichidagi hisobvaraqlar kabi ikki yoqlama yozuv asosida olib boriladi. Har bir bo‘lim asosiy va yordamchi hisobvaraqlarni (subschyot) o‘z ichiga mujassamlagan. Umuman aytganda, bank aktivlari, passivlari, kapitali, daromadlari va xarajatlari bo‘yicha hisobvaraqlar alohida bo‘limlarga kiritilgan. YA’ni;

I bo‘lim 10000 – Aktivlar

II bo‘lim 20000 - Majburiyatlar

III bo‘lim 30000 – Kapital

IV bo‘lim 40000 – Daromadlar

V bo‘lim 50000 – Xarajatlar

VI bo‘lim 90000 – Ko‘zda tutilmagan holat bo‘yicha (ya’ni balansdan tashqari) hisobvaraqlar.

Yangi hisobvaraqlar rejasi Bosh buxgalteriya kitobidagi hisobvaraqlar tizimini aks ettirib, ular moliyaviy operatsiyalarni guruhlashtirish ikki yoqlama yozuvni amalga oshirish, hisobotlarni tuzish va tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Barcha hisobvaraqlar shunday tartibda ishlab chiqilganki, bunda

- birinchidan, barcha hisobvaraqlarning asosiy va yordamchi kitoblarda joylashuvini osonlashtirish;
- ikkinchidan, hisobvaraqlarni guruxlash va tasniflash;
- uchinchidan, hisob ishlarini kompyuterlashtirish;
- to‘rtinchidan, operatsiyalar bo‘yicha yozuvlarni bajarilishini tezlashtirishni ta’minlash mumkinligi hisobga olingan. Rejadagi hisobvaraqlar Bosh daftar uchun beshta raqamdan iborat qilib kodlashtirilgan.

Hisobvaraqlarning nomerlanishi quyidagicha:

S	MM	SS
---	----	----

S – hisobvaraq kategoriyasini bildiradi, ya’ni

1 – aktivlar

2 – majburiyatlar

3 – kapital

4 – daromadlar

5 – xarajatlar

9 – ko‘zda tutilmagan holatlar

MM – yuqorida sanab o‘tilgan kategoriyalardan biriga qarashli asosiy hisobvaraq

01 – asosiy hisobvarag‘i naqd pullarni bildiradi, ya’ni bank aktivlaridan biri bo‘lgan naqd pullar.

SS – asosiy hisobvaraqqa qarashli bo‘lgan subhisobvaraq masalan 10000 – aktivlarni bildiradi.

10100 – aktivga qarashli naqd pullarni bildiruvchi asosiy hisobvaraq.

10101 – kassadagi naqd pullarni bildiruvchi hisobvaraq.

Demak, 1 – aktivlar

01 – naqd pullar

01 – kassadagi naqd pullar.

Barcha kategoriyaga qarashli asosiy va subhisobvaraqlar xuddi shunday tartibda nomerlanadi.

Barcha aktivlar 40 dan ortiq asosiy hisobvaraqlarga bo‘linadi, har bir asosiy hisobvaraqlar ham bir necha subhisobvaraqlardan iborat. Masalan: 10100 – asosiy hisobvaraqlar “Naqd pullar va boshqa kassa xujjatlari” deb nomlanadi va quyidagi subhisobvaraqlarni o‘z ichiga oladi:

- 10101 – aylanma kassadagi naqd pullar;
- 10102 – naqd pullar zahirasi;
- 10103 – pul almashtirish shaxobchasidagi naqd pul;
- 10105 – cheklar va boshqa kassa xujjatlari;
- 10107 – bankomatlardagi naqd pullar. 10109 – yo‘ldagi pullar.

Xuddi shunday misolni “Majburiyatlar” kategoriyasi bo‘yicha ko‘rib chiqamiz. Bank majburiyatlari talab qilib olinadigan (muddatsiz) depozitlardan boshlanadi. YA’ni:

20200 – talab qilib olinadigan depozitlar. Bunda 2-majburiyatlar kategoriyasini, 02 esa shu majburiyatlarga esa tegishli asosiy hisobvaraqlarni bildiradi. Ushbu asosiy hisobvaraqlar bir qancha yordamchi hisobvaraqlarni o‘z ichiga oladi:

20202 – hukumatning byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha talab qilib olinadigan depozitlari.

20204 – mahalliy byudjet qaramog‘idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

20206 – jismoniy shaxslarning talab qilinguncha saqlanadigan depozitlari.

20208 – xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

20210 – davlat korxonalari, tashkilotlar va muassasalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

20212 – nodavlat-notijorat tashkilotlarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

20214 – chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

20296 – boshqa talab qilib olinadigan depozitlar.

Biz quyidagi 2.2.4 – jadvalda bankning moliyaviy natijalar taxlilini keltirdik. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, bank yillik sof foydasi 2012-yilda 507581928 so‘mni tashkil qilib, bu ko‘rsatkich 2011 – yilga nisbatan 356702 so‘mga oshgan. Bunda sof foizli daromadlarning ko‘payishi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi hamda “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunlariga asosan tijorat banklari yillik moliyaviy hisobotini majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazadi va hisobotning 1-1-sonli shakllarini ommaviy axborot vositalarida e’lon qiladi. Xususan, “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filiali faoliyati respublika Markaziy banki tomonidan yuborilgan auditorlar tomonidan tekshirilib, ijobiy audit xulosasi berilgan.

**“Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filiali moliyaviy natijalari
taxlili**

Ko'rsatkichlar		2011 yil	2012 yil	O'zgarish (+;-)
1	2	3	4	5
1. Jami foizli daromadlar	150 (20+140)	93439374145	152694659678	-781702
2. Jami foizli xarajatlar	250 (170+240)	47340311175	82921277017	355809
3. Sof foizli daromad	260 (150-250)	46099362970	69773382631	236740
4. Jami foizsiz daromad	360 (300+350)	73475227946	80589290394	71140
5. Jami daromadlar	370 (280+360)	119574590916	150362673025	30788
6. Jami foizsiz xarajatlar	450 (390+440)	8142546445	9411927913	126938
7. Operasion xarajatlar to'languncha bo'lgan sof daromadlar	460 (370-450)	1114322044471	140950745112	29518
8. Jami operasion xarajatlar	560 (480+550)0	106246352542	135323215192	29077
9. Soliq to'langunga qadar bo'lgan sof daromad	570 (460-560)	5185691929	5627529920	44183
10. Daromad solig'i	580	3676901539	5119947992	144307
11. Hisobot yilining sof foydasi.	590 (570-580)	1508790390	507581928	356702

Taxlillarimiz ko'rsatadiki, auditorlik tekshiruvi natijalari auditorlik hisoboti bilan rasmiylashtiriladi. Hisobot tarkibi, adresat, ta'kidlovchi qism, yakuniy qismlardan iborat bo'lib, adresat bo'limida tomonlarning manzillari, xuquqmy rekvizitlar hamda tekshirish maqsadi kabi ma'lumotlar qayd etilgan. Hisobotning ta'kidlov qismi oraliq va yakunlovchi dalolatnomalar bo'yicha amalga oshirilgan auditorlik tekshiruvining natijalarini o'zida mujassamlashtirgan. Yakunlovchi xulosa qismida, tekshirish natijasini xulosalangan bo'lib, ijobiy auditorlik xulosasi berilganligi qayd etilgan. Auditorlik xulosasi va hisoboti AFMS ning 70-90-sonli standartlariga asosan tuzilgan va rasmiylashtirilgan.

III-Bob. Iqtisodiyot subektlari buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirishni takomillashtirish yo‘llari

3.1. Buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirishni takomillashtirishning asosiy yo‘llari

Yuridik shaxslarda vaqtincha aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun qisqa muddatli kreditga doimiy ehtiyoj bo‘ladi. Ishlab chiqarishni kengaytirish va moderinizasiyalash uchun esa uzoq muddatli kredit olishga zaruriyat tug‘iladi. Aynan shuning uchun ko‘pgina mamlakatlarda xususiy va kichik biznes, shuningdek eksportga mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarni kreditlash masalasiga davlat siyosati darajasida qaraladi. Albatta, kreditlash murakkab jarayon, shu bois hukumat, banklar va kredit oluvchilar mazkur ishga o‘z manfaatlaridan kelib chiqib yondashadilar. Hukumat uchun banklar xo‘jalik yurituvchi subektni kreditlashyU ularning barqaror ishlashi, aholining ish bilan bank bo‘lishi, xizmat haqining o‘z vaqtida to‘lanishi, valyuta va soliq tushumi muhim. Bank esa mijoz bilan bevosita ishlaydigan muassasa. Bank o‘z faoliyati davomida kreditlash uchun mijoz tanlashda adashmasligi juda muhim. Chunki, bankni kredit qaytmaslik riskini kamaytirish, kredit ta‘minotining likvidligi, kredit va foizlarining o‘z vaqtida to‘lanishi, yuqori daromad olish hamisha qiziqtiradi.

Mijoz esa kreditni tezkor olish, iloji boricha kamroq foiz to‘lashdan manfaatdor. Eng muhimi, bank tomonidan berilgan imtiyozli davrda xususiy ishini rivojlantirib, daromad ko‘rishni boshlashi kerak.

Demak, har uchala tomon hukumat, bank va mijoz qarashlarida aholi bir qismining, korporativ va davlat manfaatlari aks etadi.

Boshqa tijorat tashkilotlari kabi bankning asosi maqsadifoyda olish ekan, u uz ishini yaxshi biladigan, rejali, ma’suliyatni his qiladigan shaxslar bilan ishlashni maqsad qiladi. Negaki, bank kredit va foizlarni o‘z vaqtida to‘laydigan mijozlarni kreditlashdan manfaatdor.

Kredit olish jarayoni oddiy kechadigan hodisa bo‘lmay, u avvaldan rejalashtiriladi va talabdor kredit olishga puxta tayyorgarlik ko‘radi. Kredit olish rejasi qanchalik puxta ishlansa, uni olish ehtimoli va bank tomonidan ko‘rib chiqish shuncha tezlashadi.

Kredit olish uchun bankka murojaat qilishdan avval talabgor quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- tijorat g‘oyasini aniq ko‘rsatish;
- loyiha qay darajada ahamiyatliligini belgilash;
- loyihani ishlab chiqishda daromadlarning minimal, xarajatlarning esa maksimal olinishi;
- loyiha o‘zini oqlashi, kredit va kredit foizlarini qaytarish imkoniyati yetarli ekanini yana bir bor ko‘rib chiqish hamda aniqliklar kiritish;
- bir nechta bankning kredit siyosati, kreditlash borasidagi ichki meyoriy xujjatlari, kreditlashining asosiy yo‘nalishlari va shartlari (muddati, foizi, ta‘minotga qo‘yilgan talablar) bilan tanishish (3.1.1-rasm)

Bankka moliyaviy hisobotlar, shuningdek boshqa ma'lumotlarni aniq va batafsil taqdim etish bankda korxonaga nisbatan ishonch paydo qiladi. Aksincha, xujjatlardagi noaniqliklar va kamchiliklar shubha uyg'otadi. Shuning uchun zaruriy xujjatlarni talab qilingan vaqtda emas, barchasini bir yo'la bankka taqdim etgan ma'qul. Korxona faoliyati, moliyaviy g'olati va loyiha maqsadi bilan bog'liq hisob-kitoblar to'g'risida boshqa taxliliy ma'lumotning ilova qilinishi bankning korxona haqidagi masavvurini yanada kengaytiradi.

Bank kredit arizasini kat'iy rad qilgan hollatlarda korxona vakili bunga izog'so'rashga va o'z dalillarini keltirishga haqli. Talabgor bankda hisoblangan koeffitsientlar qay darajada real holatni aks ettirishiga ishonch hosil qilish lozim. Negaki, bir koeffitsiyentni fermer xo'jaligi va savdo tashkiloti uchun bir xil qo'llash amaliy jihatdan noto'g'ri tasavvur beradi. Masalan, fermer xo'jaligi va savdo tashkilotida aylanma mablag'ning aylanish darajasi har xil bo'lishi tabiiy, chunki savdoda mablag' qishloq xujaligiga nisbatan tez aylanadi. O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi esa amaliyotda aksariyat fermer xo'jaliklarida yuqori, savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida esa aksincha bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida moliyaviy hisobotga buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, asosiy vositalar xarakati to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar kiritilgan.

"Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar" ga muvofiq moliyaviy hisobotlarga "Debetorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida" ma'lumotnoma ham kiritilgan.

1209 – "Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar"ga 2012-yil 20-oktabrda kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq, "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot" hamda "Debetorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida"gi ma'lumotnoma moliyaviy hisobotlar ro'yxatidan olib tashlandi. Bu ma'lumotnoma bank amaliyotida korxonaning to'lov qobiliyatini va kredit shartnomasi bo'yicha maeburiyatlarni bajarish imkonini aniqlashda hamda intizomini baholashda muhim.

Kredit olishga rozilik olinib, shartnoma tuzilgandan so'ng biznes rejadagi ko'rsatkichlarning bajarilishini doimiy nazorat qilib borish kerak.

Bankdan olingan uzoq muddatli kreditlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xo'jalik yurituvchi subektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha "yo'riqnoma" sining 329-bandiga ko'ra, balansning 7810 – "Uzoq muddatli bank kreditlari" hisobraqamida olib boriladi. Bu hisobraqamning kreditida uzoq muddatli kreditning oshishi, debetida esa uning kamayishi aks etadi. Amaldagi tartibga ko'ra, bank krediti qarzdorning hisobraqamiga emas qarzdor shartnoma tuzgan shaxsning hisobraqamiga o'tkazib beradi. Ushbu yo'riqnomada pul mablag'larini hisobga oluvchi hisobraqamlarning debetida aks ettirilishi ko'rsatilgan bo'lsada, bank qonunchiligida olingan kreditni qarzdorning hisobraqamiga o'tkazish taqiqlanadi.

7810 – “Uzoq muddatli bank kreditlari” hisobraqamining ta’rifida uzoq muddatli kreditlarning analitik hisobi berilgan kreditlarni turlari va muddatlari, banklar bo’yicha alohida yuritilishi ko’rsatilgan. Biroq uni, nazarimizda “... olingan kreditlarning analitik hisobi har bir shartnoma bo’yicha alohida yuritiladi” iborasi bilan almashtirish maqsadga muvofiq bo’lar edi. Chunki uzoq muddatli kredit ham kreditning bir turi bo’lib garchi bir necha bankdan bir necha kredit olish hollari mavjud bo’lsada, yo’riqnomada kredit turlari, muddatlari va banklar bo’yicha alohida yuritilishini ko’rsatishga hojat yo’q. Bu fikr amaldagi holatdan ancha yiroq bo’lib, taklif qilinayotgan ibora uning o’rnini bosadi. Uzoq muddatli kreditni to’lash muddatining kelgan qismi summasiga 7810 - “Uzoq muddatli bank kreditlari” hisobraqami debetlanadi va 6950 – “Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi” hisobraqami kreditlanib, uzoq muddatli kreditning qiymati kamayadi.

Milliy va xorijiy valyutada olingan qisqa muddatli (ya’ni 12 oy muddatgacha berilgan) kreditlar hisobi 6810 – “Qisqa muddatli bank kreditlari” hisobraqamining kreditida va pul mablag’larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettirilishi ko’rsatilgan. Biroq, yuqorida ta’kidlaganimizdek, bank qonunchiligida olingan kreditni qarzdorning hisobraqamiga o’tkazish kreditning maqsadlilik tamoyilidan kelib chiqib ta’qiqlanadi. Meyoriy xujjatlardagi bunday farqlar tadbirkorlik subektlarini chalkashtiradi.

Qisqa muddatli kredit qaytarilganda 6810 – “Qisqa muddatli bank kreditlari” hisobraqamining debetida, pul mablag’larini hisobga oluvchi hisobraqamlarning kreditida aks etadi.

Kredit yoki foiz garovga qo’yilgan asosiy vositani bankka topshirish yo’li bilan yoki kafil hisobidan qaytarilishi amaldagi meyoriy xujjatlarda aks ettirilmaganligi sababli, bu operatsiyalarning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks etishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Kredit yoki foiz garovga qo’yilgan mulkni bankka topshirish yo’li bilan qaytarilganda:

Debet: Bank kreditlarini hisobga oluvchi hisobraqamlar (6810 - “Qisqa muddatli bank kreditlari”, 7810 - “Uzoq muddatli bank kreditlari”).

Debet: 6920 – “Hisoblangan foizlar” hisobraqami.

Kredit: Asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobraqamlar.

2. Agar kredit yoki foiz kafil hisobidan qaytarilganda:

Debet: Bank kreditlarini hisobga oluvchi hisobraqamlar (6810 - “Qisqa muddatli bank kreditlari”, 7810 - “Uzoq muddatli bank kreditlari”).

Debet: 6920 – “Hisoblangan foizlar” hisobraqami.

Kredit: Kreditor qarzlarini hisobga oluvchi hisobraqam (6830 – “Qisqa muddatli qarzlar”).

Kredit xujjatlarini rasmiylashtirish va kredit olish uchun kelgan xarajatlarning buxgalteriya hisobini aniqlashtirish lozim.

Xalqaro amaliyotda banday xaradatlarda loyiha qiymatiga olib boriladi.

Bugungi kunda yurtimizda buxgalteriya hisobining meyoriy – xuquqiy bazasini mustahkamlash borasida sezilarli ijobiy ishlar amalga oshirilganligini e’tirof etamiz. Qolaversa, yuqoridagilardan kelib chiqib, “Xo’jalik yurituvchi subektlar moliyaviy xo’jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasiva

uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" sida xujalik yurituvchi subektlarining kredit va kredit xarakteriga ega bo'lgan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi borasida quyidagilarni taklif qilamiz:

- 6810 – “Qisqa muddatli bank kreditlari” schyoti bo'yicha analitik hisob har bir kreditni taqdim etgan bank, kredit summasi, muddati bo'yicha alohida yuritilish ko'rsatilgan. Biroq uning nomini “Bankning qisqa muddatli kreditlari”ga o'zgartirish, schyot ta'rifining tegishli qismini analitik hisob har bir kredit shartnomasi bilan almashtirish;
- 6950 – hisobraqamning nomini “Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy davrda to'lanadigan qismi” deb 7810 – “Uzoq muddatli bank kreditlari” hisobraqamini nomini esa “Bankning uzoq muddatli kreditlari” deb o'zgartirish hisobraqamlarning maqsadiga muvofiq bo'lar edi.
- Kreditni aks ettiradigan hisobraqamlar ta'rifini tegishli qismini “Bank krediti qarzdor shartnoma tuzgan shaxsning hisobraqamiga o'tkazib beriladi” degan ibora bilan to'ldirish;
- Faktorning va overdraft operatsiyalari buxgalteriya hisobining to'lay yoritilishi hamda tegishli meyoriy xujjatlarga o'zgartirishlar kiritishi buxgalteriya hisobini takomillashtiradi deb hisoblaymiz.

Kreditning maqsadli ishlatilishi, o'z vaqtida qaytarilishi va doimiy monitoringni o'rnatish bo'yicha ma'suliyat filial boshqaruvchisi, amaliyot bo'limi boshlig'i, kreditlarni qaytarish monitoringi bo'limi hamda kredit bo'limi xodimlari zimmasiga yuklatiladi.

Filialdagi kredit bo'limi xodimlari va kreditlarni qaytarish monitoringi bo'limi kredit portfelining sifatini yaxshilash va muammoli kreditlarni aniqlash maqsadida kreditlangan mijoz to'g'risida, uning faoliyati to'g'risida doimo ma'lumotga ega bo'lishi, mijozning kreditga layoqatliligini, to'lovga qobiliyatligini taxlil qilishi, kredit ta'minotining holatini nazorat qilishi shart.

Kredit bo'limi xodimlari va kreditlarni qaytarish monitoringi bo'limi tomonidan mijozning xo'jalik va moliyaviy faoliyati va biznes – rejaga asosan pul oqimining ta'minlanishi tahlil qilib boriladi. Bu mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va kelgusida muammoli kredit yuzaga kelishi oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Kredit muddati davomida mijoz buxgalteriya balansi va hisobotlarning holati, uning haqqoniyligi, debitor va kreditor qarzdorliklari, hamda taqdim etilgan garovning holati doimiy ravishda tekshirib boriladi.

Bank tomonidan doimiy ravishda kredit portfelining sifati tahlil qilinib, har bir kredit xavf-xatariga ko'ra tasniflanadi.

Berilgan kreditlarning taxlili va bank xatariga ta'sir ko'rsatuvchi omillariga ko'ra ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zahira shakllantiriladi.

Zahira miqdori hisobot davrining birinchi sanasigacha hisoblanadi.

Qarzdorning xo'jalik va moliyaviy holati yomonlashgan, bank nazoratidan bosh tortish va hisobot ma'lumotlarining buzilish holatlarining aniqlanishi hamda kreditni qaytarish istiqboli mavjud bo'lmagan taqdirda, keyingi kredit ajratish to'xtatiladi hamda oldin berilgan kredit summasi muddatidan oldin kredit shartnomasining shartlaridan kelib chiqqan holda o'ndiriladi.

Qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan holatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 dekabrda 422 – sonli “banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda o'ndiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori asosida amaliy choralar ko'riladi.

Kreditlar sifatini aniqlash va ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga yetarli miqdorda zahira shakllantirish maqsadida bank kredit portfeli har chorakda kamida bir marotaba to'liq inventarizasiyadan o'tkazilish lozim. Inventarizasiya jarayonida kredit portfeli to'liq tasniflanib, yo'qotilishi mumkin bo'lgan kreditlar uchun zaruriy zahira shakllantiriladi. Kredit portfelini tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasiga alohida e'tibor berish talab etiladi. Kredit qaytmaslik xatarini oldini olish maqsadida qabul qilingan ta'minot turlari bo'yicha monitoring qilish ishlari to'liq tashkil qilinadi.

3.2. Tekshirish natijalarini umumlashtirishni takomillashtirish yo'llari

Bugungi kunda barcha iqtisodiyot subektlarini moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirish asosan 2 ta nazorat organi, ya'ni davlat moliyaviy nazorat organi va nodavlat nazorat organi orqali amalga oshirilmoqda. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, aynan bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi nazorat nodavlat nazorat organi, ya'ni auditorlik tekshiruvchidir. Chunki auditorlik tekshiruvining maqsadi: xolislik va ishonchlik hamda manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, moliyaviy hisobotlarning to'g'riligi va ishonchligini tasdiqlab berishdan iborat. Ma'lumki, auditorlik tekshiruv natijalari auditorlik hisoboti bilan umumlashtiriladi hamda rasmiylashtiriladi.

Auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishni takomillashtirishda o'ziga xos yondashuvlar mavjud.

Xususan, auditning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, umumlashtirilgan va baholangan tekshiruv natijalarini kamida ikkita xujjat bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir:

1. Audit haqidagi shartnomada ko'zda tutilgan davr ichidagi korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish to'g'risidagi hisobot;
2. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi.

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunida belgilanishicha: auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoida buzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek, auditorlik tekshiruv o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subekt raxbariga, mulkdorga, qatnashchilarining umumiy yig'ilishiga yo'llangan xujjat, №70 – "Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot tug'risida auditorlik xulosasi" nomli AFMS ga muvofiq auditorlik hisobotining tarkibi quyidagicha bo'lishini tavsiya etamiz:

- a) Nomi (" Auditorlik hisoboti" yoki "Auditorlik tashkilotining hisoboti" degan har ikkali nom bir xil ma'noga ega);
- b) Adresat nomi;
- c) Kirish qismi;
- d) Tahlil qismi;
- e) Yakuniy qismi.

Auditorlik hisoboti moliyaviy holatni auditorlik tekshiruvdan o'tkazgan auditor (lar) tomonidan betma-bet imzolanishi lozim. Auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga, buyurtmachining barcha zarur rekvizitlari ko'rsatilgan holda jo'natiladi.

№70-AFMS ga muvofiq auditorlik tashkiloti tuzilgan auditorlik hisoboti uchun qonunchilikka muvofiq javobgar hisoblanadi. Shuningdek, auditorlik hisobotidagi axborotlar maxfiy hisoblanadi va uni oshkor etish mumkin emas. Ushbu axborotlarga aloqador shaxslar axborotlarni oshkor qilinganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Auditorlik tekshiruvining natijalari asosida tuzilgan hisobotda korxona moliya-jo'ralik faoliyati va uning natijalari umumiy ahvoli, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishning holati tahlil ishlarining darajasi hamda korxonadagi hisob tahlil xodimlarining tavsifi aks ettiriladi.

Auditorlik hisoboti ma'lumotlari korxona bozor sharoitlariga qanday moslashayotganligi va muvaffaqiyatli rivojlanishi hamda foydasini ko'paytirishga qodirligini yoki aksinchaligini bildirishi lozim. Albatta, tekshirilayotgan korxonadagi ahvol bezab ko'rsatilmagan, auditorga taqdim qilingan axborot haqiqiy bo'lmagandagina ehtirolarga berilmagan va real auditorlik hisoboti hamda xulosa shakllanadi, aks holda, auditorlik tekshiruvi befoyda va uni o'tkazish uchun sarflangan mablag' esa zoys ketadi.

Auditor hisobotda keltirilgan kamchiliklar bo'yicha ularni bartaraf qilishga qaratilgan o'z takliflarini ham ko'rsatib o'tishi lozim. Lekin tekshirilayotgan korxona xodimlariga "yaxshilik" qilish maqsadida auditor shaxsan o'zi dastlabki xujjatlar registrlari va buxgalteriya hisobotlaridagi hatolarni to'g'irlash mutlaqo mumkin emas.

Shu bilan birga auditorlarga u yoki bu noxush faktlarni boshqacha qilib yoritishga yoki tekshiruvchilar uchun qulay xulosa tuzib berishga majburlash maqsadida ruhiy, jismoniy yoki boshqacha tazyiqlar o'tkazgan hollarda ular qat'iylik va prinsipiiallik bilan ish tutishlari lozim.

Auditor aniqlangan xato yoki kamchiliklar to'g'risida korxona raxbariyatiga bildiradi va ularni tuzatish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

Agar buxgalterlik (moliyaviy) hisobni yuritish, tegishli hisobotlarni tuzish va O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga rioya qilish bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar audit o'tkazish chog'ida buyurtmachi korxona tomonidan tuzatilmasa, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotning ishonchliligini tasdiqlash mumkin emasligi to'g'risida auditorlik tekshiruvining xulosasi yoziladi.

Xulosa va takliflar

Bitiruv malakaviy ishi, “Buxgalteriya hisobi va hisobotining holatini tekshirish va uning natijalarini umumlashtirish tartiblari” mavzusida “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filiali misolida bajarildi. Va quyidagi xulosalar hamda takliflar qilindi.

➤ Iqtisodiyotni mldernizasiyalash sharoitida barcha iqtisodiyot subektlari faoliyatida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish obektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki, buxgalteriya hisobi bu kundalik va umumiy ma'lumotlar olish maqsadida xo'jalik faoliyatini uzluksiz kuzatish va nazorat qilish tizimi bo'lib, uning umumlashgan ma'lumotlari hisobot shaklida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

➤ Aynan erkin tovar – pul munosabatlari va inqirozga qarshi choralar dasturining ijrosini tahlil qilinganda iqtisodiyot subektlari faoliyatida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirish davr talabi hisoblanadi. Chunki, ushbu ma'lumotlarning ishonchliligi, to'g'riligi, haqqoniyligi va moliya-xo'jalik jarayonining qonuniyliligini tekshirish natijasida subekt haqida qaror qabul qilish ta'minlanadi.

➤ Mamlakatimiz milliy hisobchilik tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirish usullarini shartli ravishda iiki guruxga ajratish mumkin:

1. texnik tekshirish usuli;
2. mantiqiy yoki mazmunan tekshirish usuli. Aynan moliyaviy hisobotlar oshkor etiladigan hisobotlar bo'lganligi uchun mantiqiy tekshirish usulini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, bu usul auditorlik tekshiruvining asosiy dastagi hisoblanadi.

➤ “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filialida buxgalteriya hisobi va hisobotlariga ijobiy audit xulosasi berilgan. Chunki, bitiruv malakaviy ishi obekti sifatida tanlangan “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filialida moliyaviy hisobotlar to'g'ri va ishonchli tuzilgan hamda 2012 yil yakunida 507581928 so'mlik sof foyda ko'rilgan.

➤ “Mikrokreditbank” OATB Qashqadaryo viloyat filialida buxgalteriya hisobi ikki maqsadda o'tkaziladi:

Birinchidan; o'z faoliyatini kuzatishva baholash maqsadida, ikkinchidan mijozlar hisobraqamlari bo'yicha kunlik hisob-kitoblar yakunini chiqarish maqsadida. Bizningcha bankda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, tashqi foydalanuvchilarga bank haqidagi umulashgan ma'lumotlar yangi moliyaviy hisobotni olishga “Bank siri” tushunchasiga noto'g'ri yondashuv sababli oshkor etiladigan ma'lumotlar ham sir saqlanmoqda.

➤ Bank 2006 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga ko'ra sobiq Tadbirkor bank viloyat filiali bazasida tashkil etilgan bo'lib, bankda kunlik, oylik, choraklik va yillik moliyaviy hisobot tuziladi asosan 1-shakl)yu va bir yilda bir marta moliyaviy hisobotni majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

➤ Qisqa muddatli bank kreditlari schyoti bo'yicha analitik hisob har bir kreditni taqdim etgan bank kredit summasi, muddati bo'yicha alohida yuritilishi ko'rsatilgan.

➤ Tijorat banklari kreditlaridan foydalanish jarayonida kredit xujjatlarini rasmiylashtirish va kredit olish uchun ketgan xarajatlarning buxgalteriya hisobini aniqlashtirish lozim. Chunki, xalqaro amaliyotda bunday xarajatlar loyixa qiymatiga olib boriladi.

➤ "Xo'jalik yurituvchi subektlar moliyaviy – xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"sida xo'jalik yurituvchi subektlarning kredit va kredit xarajatlariga ega bo'lgan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi borasida quyidagilarni taklif qilamiz:

➤ 6810 – "Qisqa muddatli bank kreditlari" schyoti bo'yicha analitik hisob har bir kreditni taqdim etgan bank, kredit summasi, muddati bo'yicha alohida yuritilish ko'zda tutilgan. Biroq uning nomini "Bankning qisqa muddatli kreditlari"ga o'zgartirish, schyot ta'rifining tegishli qismini analitik hisob har bir kredit shartnomasi bilan almashtirish; 6950 – hisobraqamning nomini "Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy davrda to'lanadigan qismi" deb 7810 – "Uzoq muddatli bank kreditlari" hisobraqamini nomini esa "Bankning uzoq muddatli kreditlari" deb o'zgartirish hisobraqamlarning maqsadigamuvofiq bo'lar edi.

➤ Kreditni aks ettiradigan hisobraqamlar ta'rifining tegishli qismini "Bank kreditlari qarzdor shartnoma tuzgan shaxsning hisobraqamiga o'tkazilib beriladi" degan ibora bilan to'ldirish;

➤ Faktorning va overdraft operatsiyalari buxgalteriya hisobining tshla yoritilish hamda tegishli meyoriy xujjatlarga o'zgartirishlar kiritishi buxgalteriya hisobini takomillashtiradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (yangi taxriri) – T.: O'zbekiston 2010
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni //O'zbekiston ovozi. 1996 yil 17 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik xujjatlari to'plami. – T.: O'zbekiston 2003 y.
4. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik xujjatlari to'plami. – T.: O'zbekiston 2010 y.
5. “O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasidagi elektron to'lovlar tizimi bo'yicha hisob-kitoblar yuritish to'g'risida Nizom”. – TTAD.1010.19.02.01.
6. “Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizom”. – TBLBD.992.22.12.00.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlash va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. Oliy Majlis qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2005 yil 28 yanvar// O'zbekiston ovoz. 2005 y 29 yanvar.
8. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz keng ko'lamli islohatlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza. 2013 y. 18 yanvar.// Ishonch gazetasi 2013 y 19-yanvar.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi , O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari. –T.: O'zbekiston, 2009. 54 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi , O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – TDIU. Iqtisodiyot, 2009. 106 bet.
11. Karimov I. “Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. – T.: O'zbekiston. 2010.
12. Karimov I. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”.// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar (№5434).
13. Abdullayeva SH. Pul, kredit va banklar. – T,: Moliya , 2000. 312b.
14. Voxobov A.V., Ibroximova A.T., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T,: SHarq. 2005.
15. Do'stmurodov R. Audit asoslari . – T,: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003 y.
16. Mirzayev I.F. Banklararo raqobat mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. –t,: Moliya, 2008. 276 b.
17. KArimov A. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T,: SHarq, 2005.
18. Umarova M. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T,: 2004.
19. O'lmasov A., Vohobov A. Iqtisodiyot nazariyasi . – t,: SHarq NMAK, 2006, 448 b.

20. www.cup.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.
21. www.lex.uz
22. <http://www.ziyonet.uz>
23. <http://www.qmii.uz>